

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.Jo'rayeva	
Firoqiy va Partav	314
Z.Teshabojeva	
Abduqayum yo'ldoshning obraz yaratish mahorati	318
N.J.Abdusamatova	
Katta va tayyorlov guruh bolalari nutqini rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuv orqali maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini ta'minlash	322
Sh.A.Ermatova	
Erkin Vohidovning "Nido" dostonini o'qitishda "Blum taksonomiyasi" dan foydalanish	326
M.J.Jurabojeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qo'shiqlarni tinglash va tahlil etishga o'rgatishning o'ziga xosligi	331
Sh.M.Usanov	
O'zbekistonda millatlararo hamjihatlik va totuvlikning ta'minlanishida milliy madaniy markazlarning o'rni.....	334
V.A.Giyosova	
Glyuttonimlar bilan ifodalangan bolalarga oid murojaat birliklari	339
Г.Р.Абдуллаев	
Социокультурные и этнические особенности в развитии молодёжи в узбекских семьях под влиянием опыта пожилых.....	342
J.Sh.Amayusupov	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish bosqichlari.....	345
M.T.Voxidova	
Abu Nasr Forobiy asarlarida insonparvarlik masalalari	350
N.M.Xodjibolajeva	
Jadid mutafakkirlarining qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari	354
Sh.M.Muxamedov	
Materialshunoslik fanining elektron-dasturiy va metodik ta'minotini takomillashtirish.....	358
S.I.Raxmatullajeva	
Farg'ona viloyati axborot kutubxona markazi faoliyati tarixi	371
M.A.Junaydullajev	
Buxoroda jadidchilik harakatining vujudga kelishi tarixiy shart-sharoitlari	377
M.M.Temirova	
Ichki ishlar profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda asosiy vazifalari va funksiyalari	382
M.U.Kurbanov	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagogik jamoasini maqsadli boshqarishda ergonomik yondashuv	387
M.O.Batirkhanova	
Badiiy asarlardagi somatik frazeologik birliklar tarjimasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	391
M.C.Ganieva	
Особенности социально-философских взглядов по развитию женского предпринимательства.....	395
I.A.Ismoilov	
Jazo tushunchasi va uning mazmun-mohiyati xususida	401
D.G'.Zaylobidinova	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning metodik tizmi	405
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalasiga doir	408
M.M.Yunusov	
Universitetlarda "Kimyoviy texnologiya" fanini fanlararo bog'lanish asosida o'qitishning pedagogik-psixologik jihatlari	416
G'.M.Alamov	
Sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishda xalq o'yinlarining o'rni.....	420

JAZO TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUN-MOHİYATI XUSUSIDA

ЗНАЧЕНИЕ И СУТЬ ПОНЯТИЯ НАКАЗАНИЕ

ON THE CONCEPT OF PUNISHMENT AND ITS CONTENT

Ismoilov Ixtiyorjon Azamjonovich¹¹Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti**Annotatsiya**

Mazkur maqolada jazo tushunchasi, mazmun-mohiyati, uning turlari, jazolash jazoning asosiy maqsadi emas, balki huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni Konstitutsiya va qonunlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, huquq-tartibotni ta'minlash, ushbu shaxsning o'zi va boshqa shaxslar tomonidan huquqqa xilof qilmishlar sodir etilishining oldini olish ekanligi to'g'risidagi ayrim fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье рассматривается понятие наказания, его сущность, его виды, наказывать является не основной целью наказания, а воспитанием лица, совершившего правонарушение, в духе уважения к Конституции и законов, обеспечения правопорядка, противоправности, действия этого лица и других лиц, изложены некоторые мнения о предотвращении его возникновения.

Abstract

In this article, the concept of punishment, its essence, its types, punishment is not the main purpose of punishment, but education of the person who committed the offense in the spirit of respect for the Constitution and laws, ensuring law and order, illegal acts by this person and other persons. some opinions about the prevention of its occurrence have been stated.

Kalit so'zlar: jinoyat va jazo, ma'naviy va axloqiy taqiqlar, jinoiy faoliyat, jinoiy qilmish, jazo turlari va tizimi, davlatning majburlov chorasini, axloqiy va huquqiy baho, huquqbuzarlik, huquqiy javobgarlik.

Ключевые слова: преступление и наказание, морально-этические запреты, преступная деятельность, преступное деяние, виды и система наказания, принудительная мера государства, морально-правовая оценка, правонарушение, юридическая ответственность.

Key words: crime and punishment, moral and ethical prohibitions, criminal activity, criminal act, types and system of punishment, coercive measure of the state, moral and legal assessment, offense, legal responsibility.

KIRISH

Bugungi kunda jinoyat va jazo tushunchalarining huquqiy va axloqiy mazmuni, unga munosabat o'zgarib bormoqda. Shu bois jinoyat va jazo tushunchalarining axloqiy-huquqiy va ijtimoiy-falsafiy mazmun-mohiyatini tadqiq etish dolzarb ijtimoiy masalalardan biri sifatida baholanmoqda.

Jinoyat va jazo bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Jazo – sodir etilgan jinoyatga nisbatan davlatning tabiiy munosabati. Agar ijtimoiy xavfli qilmish jazolanmas ekan, uni jinoyat deb hisoblash mumkin emas. Jazo jinoyat tushunchasining majburiy alomatidir.

“Jinoyat” so'zi arab tilidan o'tgan bo'lib, lug'aviy ma'nosi taqiqlangan harakatning sodir etilishini anglatadi. Ko'plab fikrhunoslar jinoyat deganda faqat shaxsga qarshi qaratilgan jinoiy xatti-harakat emas, balki keng ma'noda shariat qoidalari hamda qonunlarda taqiqlangan harakatlarni sodir etish tushunilishini izohlaydilar.

“Jinoyat” tushunchasiga ilk bor 1791-yilda qabul qilingan Fransiya Jinoyat kodeksida tarif berilgan bo'lib, ushbu ta'rif formal tusga ega edi. Unda jinoyatga: “Jinoyat bu – amaldagi jinoyat qonuni bilan jazolanadigan qilmishdir”, – deya ta'rif berilgan edi[6]. Demak, jinoyat bu – ijtimoiy va huquqiy hodisa hisoblanadi.

Jinoyat – axloqiylik tamoyillari asosida tarkib topgan huquqiy talablar, qonun-qoidalar ustuvor bo'lgan fuqarolik jamiyatida ushbu meyorlarga mensimasdan munosabatda bo'lish oqibatida shaxsiy manfaatlar ustunligi hamda o'zgarlar haq-huquqlarini buzish natijasida sodir etilgan hodisa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda, ayniqsa, yangi taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga doir nutq va asarlari mazkur ilmiy maqola uchun nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda jinoyatga jazo tayinlash tizimini takomillashtirish masalalari Q.R.Abdurasulova, B.D.Axrarov, B.A.Axmedov, Sh.Y.Abduqodirov, P.Bakunov, Z.Z.Nurulloyeva, R.A.Zufarov,

Z.S.Zaripov, Y.M.Karaketov, R.Kabulov, M.X.Rustamboyev, F.Toxirov, M.Usmonaliyev, M.X.Jiyanov, M.Qodirov, M.Z.Muqumova, U.Sh.Xoliqulov, Sh.U.Umidullayev va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Biroq yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ilmiy ishlari masalaning umumiy jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, jinoyat va jazoga oid xalqaro va milliy huquqiy tajribalarning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlariga qaratilgan alohida monografik tadqiqot olib borilmagan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki, jinoyatchilikka karshi kurashda va uning oldini olishda qo'llaniladigan asosiy vositalardan biri, bu jinoiy jazo hisoblanadi.

Jazoning mohiyati va tabiatini ochib berish markaziy masalalardan biri bo'lib, usiz jazoning mazmun va maqsadi, tarbiyaviy va ogohlantiruvchi ahamiyati to'g'risida tasavvur hosil qilish mumkin emas.

Jinoyat va jazo hayotdagi turli hodisalar bo'lib, o'z navbatida, ularning bir-biri bilan bog'liqligini inkor etib bo'lmaydi.

Jazoning umumiy ogohlantiruvchi ta'siri uch asosiy ko'rsatkichi buyicha amalga oshiriladi:

- birinchidan, u qo'rqitish ta'sirini vujudga keltiradi. Jazodan qo'rqish jamiyatning ma'naviy va axloqiy jihatdan beqaror a'zolarini jinoyat sodir etishdan o'zini tiyishga majbur qiladi;
- ikkinchidan, jazo ma'naviy va axloqiy taqiqlarni yanada mustahkamlaydi. Natijada shaxs huquq kuchaytirgan axloq normalariga rioya qilib, belgilangan ijtimoiy tartibni buzishdan o'zini tiyishi mumkin;
- uchinchidan, jinoiy javobgarlikka tortish imkoniyatining mavjudligi odamlarda odatdagi qonunga bo'ysunuvchanlikni tarbiyalash va rag'batlantirishga qodir[1:30].

Jazo uchta maqsadni ko'zlaydi: ijtimoiy adolatni tiklash; yangi jinoyatlarning oldini olish; mahkumni axloqan tuzatish va qayta tarbiyalash.

Mahkumning axloqan tuzalishini tabaqalashtirish o'ta murakkab ish bo'lgani uchun ikki qarama-qarshi qutbni: jazoni qo'llashga hojat bo'lmagan darajani va shaxsni mutlaqo tuzatib bo'lmaydigan, oliy jazoni qo'llash maqsadga muvofiq bo'lgan darajani ajratish zarur. Fikrimizcha, axloqan tuzalishning bu ikki qarama-qarshi qutblari o'rtasida juda ko'p oraliq darajalar ham mavjudki, ularni ajratish lozim. Zero, aynan mana shu yerda jinoyatchi shaxsini tiplarga ajratish tuliq amalga oshirilishi mumkin.

Jazoning mazmuni, uning tushunchasi va belgilari bilan, o'z navbatida, u qaysi ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya doirasida mavjud ekanligiga, qanday ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy qarashlar hukmron ekanligiga bog'liqdir. Chunki «jazoning turlari va tizimi u yoki bu jamiyatda jinoyatchilikka qarshi kurashda hukmron bo'lgan qarashlarni ifoda etadi. Ya'ni jazo tizimi jinoyatchilikka qarshi kurashda hukmron bo'lgan qarashlar natijasida shakllanib va takomillashib, jamiyatning rivojlanish bosqichi va natijalarini anglatadi»[2:10-11].

Jazo to'g'risida ko'rsatib o'tilgan har bir ta'riflar, o'z navbatida, uning jinoiy jazo sifatida muayyan qirralarini ifoda etadi. Bu borada, jazoning mohiyati E.X.Norbo'tayev tomonidan to'g'ri ochib berilgan bo'lib, uning fikriga ko'ra, «jazolash – bu jazoning mohiyat mazmunidir. Jazo – bu shaxsning jinoyat sodir qilganligi uchun sud tomonidan, davlat nomidan qo'llaniladigan, mahkumni qonunda ko'zda tutilgan huquq, erkinlik va manfaatlardan mahrum qilishdir»[4:18].

Jinoiy jazoning maqsadi, jinoyat qonunida muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Jazodan ko'zlangan maqsad mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatini davom ettirishga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek, boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Yuqoridagilarga ko'ra, falsafiy tahlil asosida jazoning qonunda belgilangan tushunchasidan quyidagi belgilarni ajratish mumkin bo'ladi:

Birinchidan, jinoiy jazo davlatning majburlov chorasi sifatida faqat jinoyat qonunida belgilanadi. Ya'ni jinoyat qonunida ko'rsatilmagan jazolarni sud qo'llashga xaqli emas, chunki qonunchilikda jazolar ro'yxati qat'iy bo'lib, undan chetga chiqishga yoki unda nazarda tutilmagan jazoni qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

Ikkinchidan, jinoiy jazo faqat sud tomonidan davlat nomidan tayinlanadi. Sud tomonidan tayinlangan jazodan mahkumni hech bir mansabdor shaxs yoki organ ozod qila olmaydi. Faqat sud qonuniy asoslari bo'lgani holda, shaxsni jazodan ozod qilishi mumkin.

Uchinchidan, jinoiy jazo faqat jinoyat sodir qilishda aybdor bo'lgan shaxslargagina qo'llaniladi.

To'rtinchidan, jinoiy jazo faqat jinoyat sodir qilgan shaxsning o'zigagina qo'llaniladi, uning a'zolariga yoki oila a'zolaridan biriga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

Beshinchidan, jinoiy jazoni qo'llash – aybdorning harakatini davlat tomonidan qoralashdan iborat bo'lib hisoblanadi. Jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan jazo qo'llash, uning jinoiy qilmishiga axloqiy va huquqiy jihatdan baho berishdir.

Oltinchidan, jinoiy jazo mahkumga nisbatan uning sodir qilgan jinoyatining ijtimoiy xavflilik va ayb darajasiga qarab ma'lum darajada musibat keltiradi. Demak, jinoiy jazo davlatning majburlov chorasi bo'lib, u faqat jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan, davlatning organi sud tomonidan qo'llaniladi va mahkum uchun ma'lum bir huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Jinoyatchilikning oldini olish asosan ikki yo'nalishda amalga oshiriladi. Birinchi yo'nalish — jinoyat qonunida alohida jinoiy qilmish uchun jinoiy javobgarlikka tortilib jazolanishni belgilanishning o'zi, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar uchun qonunda og'ir jazo choralarining belgilanganligi jinoyatchilikning oldini olish vazifasini bajarish bilan birga tarbiyalash (jazolash bilan qo'rqitib) funksiyasini ham bajaradi.

Ikkinchi yo'nalish – jinoyat sodir etishda ayblanib, javobgarlikka tortilgan shaxsga nisbatan jazo qo'llash orqali amalga oshiriladi. Ya'ni jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan qonunda belgilangan jazoni tayinlab ularning jinoiy faoliyatini davom ettirishga to'sqinlik qilinadi[5:18]. Agar jinoyatchilik oldi olinmasa yoki loqaydlik sabab profilaktika choralari ko'rilmasa oxir-oqibat u katta muammolarga olib kelishi muqarrar va aksincha, agarda noqonuniy xatti-harakatlarning samarali profilaktikasi amalga oshirilsa, huquqbuzarlikning vaqtida tezkor ravishda oldi olinsa – xavfsiz hudud konsepsiyasi hayotda o'z tatbig'ini topadi.

Jinoiy jazo o'z tabiatiga ko'ra, jinoyat qonuni talablarini bajarmagan, uni buzgan shaxslarga nisbatan tarbiyaviy choradir. Jinoiy qilmishlarga tayinlanadigan jazolar, eng avvalo, jamiyat va davlatning tashkiliy tuzumini, tarixiy shakllanib kelgan jinoyat-huquqiy nazariyalar va ta'limotlar, udumlarga, jinoyatchilik dinamikasiga ham bog'liq holda turli davrlarda uning maqsadi turlicha bo'lib kelgan. Aytaylik, qadimgi davrda o'ch olish, keltirilgan zararni qoplash, ba'zan jismonan yo'qotish bo'lsa, o'rta asrlarda keltirilgan zararni qoplash, jamiyatning boshqa a'zolarini jazo tahdidi bilan qo'rqitish va ogohlantirish, jamiyatdan ajratish bo'lgan.

Jazodan maqsad jinoyatchining shaxsini, qadr-qimmatini kamsitish, o'ch olish, jismonan yo'q qilish emas, keltirilgan zararni qoplash, jinoyat sodir etgan shaxsni axloqan tuzatish, kelgusida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olish bo'lib qoldi[3:13]. Demak, jinoyatchilikka qarshi kurashish barcha davrlarda ham davlatning jiddiy va muhim masalasi hisoblanib kelingan.

XULOSA

Xulosa qilganda, mamlakatimizda jinoyatchilikni oldini olish mexanizmlarini yaratish va ularni hayotda qo'llash, bu sohadagi ishlarni takomillashtirish muhim va zaruriy bo'lib, uning dolzarbligi quyidagilar bilan belgilanadi:

- davlatning eng muhim vazifalaridan biri – ma'naviy jihatdan barkamol, jismoniy va ruhiy jihatdan sog'lom, fidoyi insonni tarbiyalash, ma'naviy va ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga yetkazishga ijtimoiy zarurat ekanligi;

- universal texnologiyalar bilan bog'liq globallashtirish jarayonida inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga zarurat tug'ilishi;

- jamiyat tomonidan belgilangan huquq normalariga rioya qilish hamda uning natijasi jamiyat manfaatlarini bog'liqligi, yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo'llashi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishi;

- voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikni oldini olish va ular bilan ishlashda profilaktik mexanizmlarini yaratish zaruratining oshishi;

- ta'lim-tarbiya jarayonida voyaga yetmaganlar faoliyatini boshqarish, ularni barkamol shaxs qilib tarbiyalash tendensiyasining kuchayishi. Demak, bularning barchasi hozirgi zamonning dolzarb muammolaridan biri bo'lmish – shaxs huquqlari va erkinliklarining har tomonlama ta'minlanishi va himoyalashini qonunlar asosida bajarilishini ta'minlash bilan uyg'un holatda olib borilishiga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Анденес И. Наказание и предупреждение преступлений. – Москва: Юр. лит-ра, 1979.
2. Карпец И.И. Наказание: социальные, правовые и криминологические проблемы. – Москва, 1973.
3. Муқимова М.З. Суд-хуқуқ ислохотлари ва жиноят қонунини либераллаштириш масалалари. Монография. – Самарқанд: СамДУ, 2009.
4. Норбутаев Э.Х. Проблемы эффективности правовых мер борьбы с преступностью: (теория и практика). Автореф. дисс.... док. юрид. наук. – Ташкент, 2001.
5. Усмоналиев М. Жиноят ҳуқуқи. – Тошкент: «Янги аср авлоди», 2010.
6. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/Jinoyat> va jinoyatchilik tushunchasi